

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 apreldagi "Vazirlar Mahkamasining "Bolali oilalarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida" 1996 yil 10 dekabrda 437-son qarorining 2-bandiga o`zgartirish kir

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" 2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-son Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining "Shaharlar, posyolkalar, qishloq va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo`lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o`zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o`zgartirish tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2014 yil 4 martdagi 48-son qaroriga muvofiq Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 apreldagi "Vazirlar Mahkamasining "Bolali oilalarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida" 1996 yil 10 dekabrda 437-son qarorining 2-bandiga o`zgartirish kiritish haqida"gi 306-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, istisno hollarda, 500 nafardan kam aholi, lekin kamida 100 oila yashaydigan borish qiyin bo`lgan va tog`li tumanlarda ham tashkil etilishi mumkinligi ma`lumot uchun qabul qilinganligi;

b) Vazirlar Mahkamasining "Bolali oilalarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida" 1996 yil 10 dekabrda 437-son qarorining 2-bandi uchinchi xatboshisining ikkinchi jumlasini chiqarib tashlanganligi;

v) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ushbu qaror talablari tegishli tumanlar byudjetlarining 2018 yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida bajarilishini, 2019 yildan boshlab ularga byudjetlarini shakllantirishda ushbu qaror talablari inobatga olinishini ta`minlash topshirilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Vazirlar Mahkamasining "Bolali oilalarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi 1996 yil 24 dekabrda 311/12-son qarorining 3-bandi uchinchi xatboshisining ikkinchi jumlasini chiqarib tashlansin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligi (Sodiqov) ushbu qaror talablari tegishli tumanlar byudjetlarining 2018 yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida bajarilishini, 2019 yildan boshlab ularga byudjetlarini shakllantirishda ushbu qaror talablari inobatga olinishini ta`minlasin.

5. Tegishli vazirlik va idoralar hamda Nukus shahar va tumanlar hokimliklari o`zlarining qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o`rinbosari A.Tajetdinov, Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vaziri M.Sodiqov va Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi kengashi raisining birinchi o`rinbosari T.Romanov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog`iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining Raisi**

Q.Sariev

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)

Hujjatlar Respublika
mehmonlariga Elektron
hukumat Interaktiv davlat
xizmatlar